"BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH"

Elov Ziyodulla Sattorovich
Osiyo Xalqaro Universiteti professori,
Psixologiya fanlari doktori (DSc)
Bekmuradova Shahnoza Sunnatillo qizi
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalq og'zaki ijodi namunalari orqali milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari yoritilgan. Unda xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, rivoyatlar va dostonlarning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni hamda ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridan dars jarayonida foydalanish orqali o'quvchilarda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, an'analari va ma'naviy merosini yosh avlodga singdirishda boshlang'ich ta'limning o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, milliy qadriyatlar, boshlang'ich sinf, ertak, maqol, topishmoq, milliy tarbiya, urf-odat, an'ana, ma'naviy meros, axloqiy fazilatlar.

Kirish. Har bir xalqning o'ziga xos tarixi, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlari bor. Ana shu qadriyatlar xalqning kimligini, qanday hayot kechirganini va nimalarni qadrlashini ko'rsatadi. Ularni yosh avlodga o'rgatish esa, avvalo, oiladan boshlanib, maktabda davom etadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirish muhim, chunki bu davrda bolalarning dunyoqarashi, odobi va atrofdagilarga munosabati shakllana boshlaydi. Bolalikda eshitilgan yaxshi hikoyalar, o'rganilgan maqollar va ertaklardan chiqarilgan xulosalar ko'pincha insonning xotirasida uzoq saqlanadi.

Bu borada xalq og'zaki ijodi biz uchun juda katta tarbiya manbai hisoblanadi. Chunki ertaklar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlarda xalqimizning hayotiy tajribasi, orzu-umidlari va tarbiyaga oid qarashlari mujassam. Ularda yaxshilik va yomonlik, halollik va yolg'onchilik, mehnatsevarlik va dangasalik kabi tushunchalar oddiy, bolalarga tushunarli voqealar orqali ifodalangan. Shuning uchun xalq og'zaki ijodi namunalarini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash bolalarga nafaqat bilim berish, balki ularni yaxshi inson bo'lib voyaga yetishiga ham yordam beradi.

Masalan, xalq ertaklarini olaylik. Bolalar ertak qahramonlarining boshidan kechirgan voqealarini qiziqib tinglaydilar va ularning xatti-harakatlariga baho berishga harakat qiladilar. O'qituvchi shu qiziqishdan unumli foydalanishi mumkin. Ertak o'qib bo'lingach, "Senga qaysi qahramon yoqdi?", "Uning qaysi ishi to'g'ri bo'ldi?", "Agar sen uning o'rnida bo'lganingda nima qilarding?" kabi savollar berilsa, o'quvchilar voqeaga o'z munosabatini bildirishga o'rganadilar. Masalan, mehnatsevarlikni targ'ib qiluvchi ertaklar orqali bolalarga mehnat qilishning foydasi, dangasalikning oqibatlari tushuntiriladi. Bunday suhbatlar bolaga tayyor nasihat berishdan ko'ra, o'z xulosasini chiqarish imkonini beradi.

Maqollar ham bolalar tarbiyasida alohida o'rin tutadi. Ularning qisqa bo'lishiga qaramay, mazmuni juda keng. Masalan, "Mehnatning tagi rohat", "Yaxshilik qil, dengizga ot", "Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda" kabi maqollar orqali o'quvchilarga mehnatsevarlik, mehribonlik va odob haqida tushuncha berish mumkin. Dars davomida o'qituvchi maqolning ma'nosini shunchaki tushuntirib

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

bermasdan, bolalardan unga mos hayotiy misollar keltirishni so‘rashi ham mumkin. Masalan, uyda ota-onasiga yordam bergan yoki do‘stiga ko‘maklashgan bola o‘z tajribasi orqali maqol mazmunini yaxshiroq anglaydi.

Topishmoqlar esa bolalarning fikrlashini charxlash bilan birga, ularning atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishini ham oshiradi. Topishmoqni topish uchun bola uning har bir so‘ziga e’tibor beradi, narsalarning belgilari haqida o‘ylaydi va javobni izlaydi. Bu jarayonda kuzatuvchanlik, zehn va mustaqil fikrlash rivojlanadi. O‘qituvchi topishmoqlardan tabiat, hayvonot olami, mehnat qurollari va kundalik turmushga oid mavzularni o‘rganishda foydalanishi mumkin.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini darsda yanada qiziqarli tashkil etish uchun turli o‘yin va topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan, “Maqolning davomini top”, “Ertak qahramonini tanla”, “Qahramonning xatosini aniqlang” kabi mashg‘ulotlar bolalarning darsdagi faolligini oshiradi. Ayniqsa, guruhlarda ishlash orqali o‘quvchilar bir-birining fikrini tinglash, o‘z qarashlarini tushuntirish va umumiy xulosaga kelishni o‘rganadilar.

Milliy qadriyatlarni o‘rgatishda bolalarga faqat ertak va maqollarni yodlatish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Eng muhimi, ular o‘rgangan tushunchalarini kundalik hayotida qo‘llay olishi lozim. Masalan, kattalarga salom berish, ota-onaga yordam berish, do‘stlarini hurmat qilish, yolg‘on gapirmaslik, tabiatni asrash kabi oddiy odatlar ham milliy tarbiyaning bir qismidir. O‘qituvchi darsda shu kabi vaziyatlarni misol qilib keltirsa, bolalar qadriyatlarning hayotdagi ahamiyatini yaxshiroq tushunadilar.

Bu jarayonda oilaning ham o‘rni katta. Chunki bola maktabda o‘rgangan odob-axloq qoidalarini oilada ko‘radi va amalda bajarishga harakat qiladi. Ota-onalar farzandlariga bolalikdan ertak aytib berishi, maqollar mazmunini tushuntirishi, milliy bayramlar va urf-odatlar haqida suhbatlashishi ularning tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Maktab va oiladagi tarbiyaviy ishlar bir-birini to‘ldirib borsa, bolalarda milliy qadriyatlarga nisbatan hurmat yanada mustahkamlanadi.

Shuni ham unutmaslik kerakki, har bir bolaning qiziqishi va tushunish darajasi har xil. Shu sababli o‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarini tanlashda ularning yoshiga mos, sodda va mazmunli asarlarga murojaat qilishi kerak. Asar yuzasidan suhbat tashkil etish, rasmlar asosida voqealarni hikoya qildirish yoki bolalarga o‘zlari yoqtirgan qahramon haqida fikr bildirish imkonini berish yaxshi natija beradi.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda oddiy, tushunarli va ta’sirchan vositadir. Undan to‘g‘ri foydalanish orqali bolalarda xalqimizga xos mehr-oqibat, hurmat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi fazilatlarni shakllantirish mumkin. Eng muhimi, yosh avlod o‘z xalqining tarixi va ma’naviy merosini tanib, milliy qadriyatlarni qadrlab ulg‘ayadi.

Adabiyotlar tahlili: Xalq og‘zaki ijodining yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni N. O. Safarova va R. J. Jalolovaning “Boshlang‘ich sinflarda xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishning nazariy va amaliy asoslari” nomli maqolasida yoritilgan. Mualliflar xalq ijodi namunalarining bolalar dunyoqarashini kengaytirish, ma’naviy fazilatlarini rivojlantirish va Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirishdagi ahamiyatiga e’tibor qaratganlar.

Z. M. Sidikovaning “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodi vositasida tarbiyalash usullari” nomli ilmiy maqolasida xalq og‘zaki ijodi va milliy qadriyatlarning bolalar axloqiy tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilingan. Unda xalq poetik ijodi namunalaridan oilada va ta’lim jarayonida foydalanish, bolalarning nutqi va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantirish masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

N. O‘razaliyevaning “Xalq og‘zaki ijodi orqali bolalarda milliy qadriyatni shakllantirish yo‘llari” nomli maqolasida ertak, maqol va boshqa folklor namunalarining tarbiyaviy imkoniyatlari haqida fikr

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

yuritilgan. Muallif xalq ijodidan foydalanish orqali bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat va ma'naviy qarashlarni shakllantirish masalasiga e'tibor qaratadi.

D. Teshaboyev va M. Abdumutalovaning "Boshlang'ich sinf darsliklarida qo'llangan xalq og'zaki ijodiyoti namunalariga doir ayrim mulohazalar" maqolasida boshlang'ich sinf darsliklaridagi folklor namunalari tahlil qilingan. Xususan, maqol, matal, topishmoq va xalq qo'shiqlarining o'quvchilar nutqi, ijodiy fikrlashi hamda tarbiyasiga ta'siri yoritilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalq og'zaki ijodi boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning samarali vositalaridan biridir. Ertak, maqol, topishmoq va rivoyatlar orqali bolalarda kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, halollik, mehr-oqibat, do'stlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllanadi. Bunday asarlar o'quvchilarga yaxshilik va yomonlikni farqlash, hayotiy vaziyatlarga to'g'ri baho berish hamda mustaqil xulosa chiqarishda yordam beradi.

Dars jarayonida xalq og'zaki ijodi namunalaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, nutqini va milliy madaniyatga bo'lgan qiziqishini rivojlantiradi. Buning uchun o'qituvchi asar mazmunini bolalarning kundalik hayoti bilan bog'lashi, turli savol-javob va ijodiy topshiriqlar orqali ularni faol ishtirok etishga undashi kerak.

Demak, xalq og'zaki ijodini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etish yosh avlodning ma'naviy kamolotiga, milliy o'zligini anglashiga va ajdodlar merosiga hurmat bilan qarashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 208 b. – B. 3–19, 36–48, 64–70.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 368 b.
3. Nafasov D.Sh., Sobirova N.Y., Qurammuradova O.B. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 324 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
5. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.
6. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 160 b.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.